



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### “O‘ZBEKISTON XALQ HOFIZLARINING IJODINI O‘RGANISH ASOSLARI HAQIDA.

**Haydarov Qutlug‘ Hamdamovich**

*Jizzax davlat pedagogika Universiteti Musiqa  
ta’limi kafedrasи stajor o‘qituchisi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq hofizlari ijodini o‘rganish zarurati va ahamiyati haqida so‘z borib, bu borada fikr-mulohazalar keltiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *musiqa, hofiz, izlanish, qadriyat, taraqqiyot, ijod, qo‘sish, ashula.*

Xalq ijodiyoti ulkan ummondir. U doimo ijodkor ahlining mahsuli bilan boyib, muntazam ulkanlashib boraveradi. Zotan, bu ummon tarkibidan joy oladigan har bir namuna o‘zining siru-sinoatlari, milliy an‘analar, milliy ruhiyat va milliy qadriyatlar bilan sug‘orilgan mezoni bilan izohlanadi. O‘zbek milliy musiqasi vaadabiyotining shakllanib rivojlanishidagi asosiy poydevori ham shundadir. Qaysiki, istedod egasi milliy an‘analarga asoslangan holda ijod qilar ekan, yaratgan asarlari milliy madaniyatimiz ravnaqidagi yorqin namunalar sifatida muhrlanadi.

Davrlar o‘tishi davomida esa, ular, avloddan-avlodga o‘tib, ulkan ummon tarkibidan joy oladi va merosga aylanadi. Xalqimizning milliy-ma‘naviy merosini musiqa san‘atisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Azal-azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, qadriyatlar sifatida shakllanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an‘anaviy tarzda avlodlardan avlodlarga o‘tib, xalqimizning buyuk ma‘naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodiyoti, musiqa sohasidagi yozma manbalar, bastakorlik san‘ati, kasbiy musiqa ijodiyoti bunga yorqin misoldir. Chunonchi, bu jarayon musiqa san‘atining barcha kasbiylik ahamiyatiga ega bo\_igan tarmoqlari uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalar kabi milliy musiqa san‘ati ham nazariy hamda amaliy jihatdan keng o\_rganilib, har tomonlama ravnaq topib kelayotganligi sir emas. Buning asosiy sabablaridan biri respublikamizda xalqimiz o‘tmishini o‘rganishga, buyuk allomalar yaratgan ilmiy merosni idrok etishga, sohaning amaliyotini o‘zlashtirish bilan birga nazariy mezonlaridan bilim olishga katta e‘tibor qaratilayotganligidir. Asosiy maqsad ham yoshlarimizni komil inson sifatida tarbiyalash, hech kimdan kam bo\_lmagان barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro\_-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o\_sib, ulg\_ayib, qanday inson bo\_lib hayotga kirib borishiga bog’liq»1.

Darhaqiqat, san‘at millatning ma‘naviy boyligi, hayotining ko\_zgusidir. San‘atlar ichida musiqa xalqqa tez yetib boradigan, keng ommalashgan turi





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



hisoblanadi. Musiqa san‘ati o‘zining qadimiyligi, janrlarga boyligi, mazmunmohiyatan keng qamrovliligi, ommabopligi bilan jamiyat turmush hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Musiqa san‘atining muhim tarmog‘i musiqa ijodiyoti va ijrochiligidir. Musiqiy namunalar yaratilish va ijro etish kabi mezonlarni o‘z ichiga oladi.

O‘tmishimizga bir nazar tashlar ekanmiz, musiqa san‘ati naqadar qadimiy san‘at ekanligini, uni avlodu-ajdodlarimiz hayotida oltin xazina bo‘lib jahonga nom taratgan olimu-fozillar, mutafakkiru-allomalar, o‘z davrining eng ilg‘or kishilar hayotida, ularning o‘lmas ijodi, izlanish va qarashlarida alohida bir nur taratib turuvchi o‘rin tutganligini ko‘ramiz. O‘rta asrlarda o‘z ilmlari, kashfiyotlari bilan Sharqni jahonga tanitgan Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Umar Xayyom, Kavkabiy, Changiy kabi ajdodlarimiz qatorida musiqiy san‘atimiz solnomalarini davom ettirgan ko‘plab hofizlarimiz Abdulaziz hofiz, K.Jabborov, J.Sutonov, F.Sodiqov, T.Jalilov, N.Hasanov, I.Ikromov, G.Toshmatov, M.Muratozoyev, Yu.Rajabiy, F.Mamadaliyev, M.Muhamedovlar qatori O.Hotamov va K.Otaniyozov kabi davrimiz hofiz san‘atkorlarining nomlarini sharaf bilan tilga olish, ularning hayoti va ijodini o‘rganish biz yoshlarning vazifamiz ekanligi bugungi kunda dolzarbligibilan qimmatlidir.

Hofiz (arab. — yoddan biluvchi, saqllovchi) — VII asrdan arablarda Qur‘on suralarini yoddan qiroat bilan o‘quvchi kishi, qori. XI asrdan musulmon Sharq mamlakatlari (jumladan, O‘rta Osiyo va Xuroson) da mumtoz g‘azal va dostonlarni yoddan aytgan kishilar, shuningdek, o‘zi ham ijodkorlik qobiliyatiga ega, kuyohanglarni esda saqlash quvva (hofiza)si o‘tkir bo‘lgan, yuqori malakali ashulachi, xonanda Ayni paytda, o‘z g‘azallarini ohangli o‘qigan hassos shoirlarga ham hofiz darajasi nisbat berilgan (Hofiz Sheraziy, Hofiz Xorazmiy va boshqalar). Xalq orasida "Hofizi namudor", "Hofizi nusrat" (g‘alaba qozongan, hofizlar bellashuvida g‘olib chiqqan hofiz.), "Hofizi mehrobxon" (Qur‘on suralarini, "Na’t" kabi diniy aytimlarini o‘ta yoqimli ovoz bilan o‘qiydigan hofoz;), "Hofizi Qur‘on" (butun Qur‘onni yod bilgan qori) kabi atamalar ham qo‘llangan. O‘rta Osiyoda hofiz va hofizlik san‘ati "jirchi", "oqin", "girchi", "giranda" deb atalgan o‘ziga xos xonandalik an‘analarini negizida rivoj topgan O‘zbekistonda 1920-yillarda "Turkiston Respublikasi xalq hofizi" unvoni M.Qoriyoqubov, To‘ychi hofizlarga berilgan. 1940—60 yillarda va 1990-yildan "O‘zbekiston xalq hofizi" unvoni joriy etilgan.

O‘zbek musiqa san‘ati janrlarining rang-barang bo‘lganligi tufayli professional ashulachining muayyan turi bo‘yicha ixtisoslashgan edi. Shu sababli Toshkent-Farg‘onada katta ashulaning bilimdonlari, odatda, maqomlarni ijro etmas, va aksincha maqomchilar hech qachon katta ashulani ijro etmas edilar. Shashmaqomning aXX asr boshida mashxur bo‘lgan bilimdonlari Ota Jalol Nosirov va Ota G‘iyos Abdug‘aniyev hamda bu ustozlar an‘analarini davom ettirib kelgan hofiz Domulla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziza Rasulov, Mulla To‘ychi Tohmuhamedov va Shorahim Shoumarov, keyinchalik esa ularning shogirdlari xonanda Yunus Rajabiy kabi ko‘pgina boshqa ustozlarni ko‘rstaish mumkin.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ulkan iste‘dod egalari bo‘lgan bu san‘atkorlar o‘z faoliyatlari bilan o‘zbek milliy musiqa merosining nodir namunalarini faol targ‘ib qildilar. Ayni vaqtda ular o‘zbek an‘anaviy musiqasining ijrochilarini tayyorladilar, respublika konsert tashkilotlarida milliy ijrochilik jamoalarini tuzdilar.

Ular ijodini o‘rganish, targ‘ib qilish bolalar, yoshlar orasida ommalashtirish, milliy merosga hurmat, tarbiyaviy, ma‘naviy ahamiyat masalalarini yoritadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. —Ta“lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son Qonun
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti —Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida gi 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarori.
3. Mulla Bekjon Rahmon o’g’li Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – T., 1998.
4. I. Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. – T., 1963.
5. I. Rajabov. Maqomlar. – T., 2006.
6. I. Akbarov. To\_xtasin Jalilov. – T., 1978.
7. I. Akbarov. Musiqa lug\_ati. – T., 1987.